



MODULLI O'QITISH TEXNALOGIYASI VA AFZALLIKLARI

Madaminov Furqatjon Shuhratjonovich

NAMDU

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası o'qıtuvchısı

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7194598>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 13th October 2022

KEY WORDS

modul, modulli kredit tizimi,
DTS, hamkorlik,
modernizatsiya, ta'lim, tajriba,
samaradorlik, innovatsiya,
rivojlanish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida Modulli o'qitish tizimini amaliyotga tadbıq etilganligi, modulli o'qitish tizimining tarixi va afzalliklari to'g'risida ma'lumot beriladi.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Jumladan yoshlarni hayotda o'z o'rinlarini topishlari, o'z salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari va ularni ish bilan ta'minlash doimo davlatimiz va jamiyatimizning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Prezident SH. Mirziyayev o'qıtuvchi va murabbiylar bayramiga bag'ishlangan tabrik so'zida "Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga ham ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bularning barchasi ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifati va darajasini zamon talablari asosida tubdan yahshilash, zahmatkash ustozlarimiz, mazkur sohada faoliyat ko'rsatayotgan barcha fidoiy insonlar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularning qadr-qimmatini yuksaltirishga qaratilgani bilan ayniqsa ahamiyatlidir " – deya ta'kidlab o'tgan.[1]

Ta'limni modernizatsiya qilish – bu murakkab va tadrijiy jarayondır. Shuning uchun ta'lim jarayonining chuqur o'ylab bosqichma bosqich isloh qilinishi jamiyatda xuquqiy madaniyatni oshirishga imkon beradi. Shubhasiz ta'lim sohasida innovatsion islohatlarni amalga oshirish demokratik xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining ob'ektiv ehtiyojlarini hisobga olgan holda yuqori malakali kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashning g'oyatda muxim va hal qiluvchi omili bo'lib hizmat qiladi. [2]

Mamlakatimizda halqaro ta'lim standartlari darajasida dunyoning etakchi oliy- ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, oliy malumotli mutahassislar tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, oliy ta'lim sohasida halqaro hamkorlikni kengaytirish, o'quv jarayoniga il g'or horijiy tajribalarini joriy etish davr talabidir.[3]



Bugungi kunda Oliy ta'lim muassasalarida Xorijiy tajribalarga tayangan holda o'qitishni modul tizimiga o'tilishi O'zbekistonda oliy talim tizimiga keng imkoniyatlar, ta'lim sifatini oshirishga qo'yilgan katta qadam hisoblanadi.

Modulli o'qitish nazariyasida asosiy tushuncha modul hisoblanadi. Modul o'zi nima va u birinchi marta qachon va kim tamonidan ta'lim tizimiga tadbiiq etilgan? Modul tushunchasi birinchi marotaba XX asrning 70 yillarida amerikalik olim D. Rassel tamonidan taklif etilgan. O'qitishni modul tehnologiyasini qo'llash an'anasiga ko'ra modulni tushunishda turli hil nuqtai nazarlar mavjud.[4]

Ayrim xorijiy mualliflar jumladan, V. Goldshmit va M. Goldshmitlar modul deganda "o'quv faoliyatini o'z oldiga qo'ygan, maqsadiga yordam beradigan mustaqil qismini tushunishadi". Amerikalik olim D. Rasselning fikricha modul bu o'quv materiallarining alohida qismi hisoblanadi. Rossiyalik olimlar Y. K. Bashlova va V. A. Rijovalarning ishlarida modul deganda professional faoliyatni olib borish va biror bir ishni bajarishda zarur bo'lgan ahborot hajmi tushuniladi.[5]

Modul o'z tarkibida bir necha o'quv modullaridan iborat bo'lishi mumkin. Ushbu modullarning har biri tugallangan jarayonni ifodalaydi. O'quv modullarining kengaytirilishi va ularga qo'shimchalar kiritilishi modul mazmunini yanada mukammallashtiradi. Ta'lim tizimida modulli o'qitishning joriy etilishi malakali kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirishga yordam beradi. Har qanday tizimga joriy etilgan yangilikning samarasi uning ishtirokchilari tamonidan puhta o'zlashtirib olingan taqdirdagina o'zining natijasini berishi mumkin.[6] Shu bois ta'limni modulli o'qitish asosida tashkil

etish samaradorligini oshirish maqsadida uning monitoringini tashkil etish mavjud ob'ektiv va sub'ektiv muammo va kamchiliklarni hal qilish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, bu boradagi ilg'or tajribalarni seminar- treninglar asosida muhokama etib, tashkiliy chora tadbirlarning ko'rilishi modulli o'qitishning zamonaviy shakl va usullarini ta'lim jarayiniga tadbiiq etish imkonini beradi.[7]

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishni modul tizimini joriy etish uchun eng avvalo uning mazmun mohiyatini o'qituvchilar va talabalarga tushuntirib beradigan ko'rsatma ishlab chiqish lozim.

Bizning fikrimizcha ushbu ko'rsatmada quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

Birinchidan, modulni o'qitishning asosiy talablariga:

1. Har bir modul bo'yicha aniq maqsad belgilangan bo'lishi;
2. Har bir modulning vazifalari to'g'ri qo'yilgan bo'lishi;
3. Har bir modul bo'yicha talabalar o'zlashtirishi, bilishi va amalda qo'llay olishi lozim bo'lgan tushunchalar berilishi;
4. Modul bir yoki bir necha didaktik maqsadga erishishni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi;
5. Modullar mazmuni mustaqil fikrlash, mantiqiy o'ylash va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bo'lishi;
6. Kasbiy - ijodiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulning o'quv materiali mazmuni muammoli tarzda berilishi va hokazolar.

Ikkinchidan, modulli o'qitishni afzalliklari va hususiyatlariga:

1. DTS da ko'rsatilgan fanlar va o'quv kurslarini tugallangan qismlarga (mustaqil mohiyatga ega bo'lgan modul va uni elementlariga) bo'linishi;
2. Maqsadni aniq qo'yilishi;



3. O'qitishni turli shakllari va turlarini integratsiyalash;

4. Belgilangan aniq modul uchun zarur bo'lmagan materiallarini o'zlashtirish yoki yangi materiallarni kiritish;

5. Ta'limni maksimal individuallashtirish.[8]

Oliy ta'lim muassasalari kredit – modul tizimiga o'tishi bu muayyan miqdordagi kreditlarni yil, semester va fanlar bo'yicha taqsimlab qo'yishning o'zidan iborat emas. Afsuski, hozirda ayrim OTMLar kredit-modul tizimiga o'tishni shunday tushunishmoqda. Agar kredit- modul tizimi to'liq joriy etilsa, u mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning jahon tan olgan mukammal o'lchovbirligining olib kirilishiga, OTMLar o'quv dasturlarida muvozanat va me'yor paydo bo'lishiga, darslarning sifati yaxshilanishiga vanihoyat talaba ma'lum ma'noda o'zining mustaqil o'quv dasturiga ega bo'lishiga xizmat qiladi.[9]

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 2017 yil 20 apreldagi PQ 2909- sonli qarorlari talablari asosida ta'lim sifatini ijtimoiy- iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohatlar talablariga muvofiq yuksak darajaga ko'tarish, shuningdek uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, Kadrlar tayyorlash sifati va o'quv jarayoni samaradorligini oshirishni fan- texnika va texnologiyalar, zamonaviy bilim va malaka va tajribaga ega bo'lgan mutahasislarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. [10]

Bu esa o'z navbatida uzluksiz ta'lim tizimini, jumladan oliy ta'lim muassasalari mutasaddilari va professor o'qituvchilari oldiga muhim o'ta dolzarb vazifalarni qo'yishi bilan birgalikda talabalarga esa mustaqil izlanishlari va olgan bilim va malakalarini amaliyotda qo'llash va ta'lim tizimiga innovatsiyalar olib kirishlarini taqazo etmoqda.

References:

1. Mirziyaoyev. Sh. O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim sohasida faoliyat yuratayotgan o'qituvchilarga bayram tabrigi. 2018 y.28 sentabr.
2. manba@ intellectual yoshlar vatanimiz kelajagi. Ilmiy konferensiya. Toshkent.2018 yil.
3. Abdullayeva K Ta'lim sifatini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish. 2020 yi.
4. Topildiyev V. Modulli o'qitish texnologiyalari xususida ayrim mulohazalar. Ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. 2018 yil.bet - 34.
5. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti – Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogic va zamonaviy ahborot- kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi: amaliyot va istiqbollar mavzusidagi ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. 2018 yil. Bet- 35
6. Sultonov. M. Sh. Mustafaqulov – kredit- modul tizimiga o'tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzalliklari. 2020 yil. <http://xs.uz>.
7. O'rinov V. Oliy ta'limda kredit- modul: yangi o'quv yilida talabalarni nimalar kutmoqda?. <https://kun.uz> nevs 2020/07/22.
8. Jabborova A. Kredit- modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish- Prezentatsiya. <http://www.Crasmusplus.Uz>.



9. Sh. Mustafaqulov. M. Sultonov Kredit- modul tizimi haqida bilasizmi. "Xalq so'zi Online". [https // navoiy- uni. Uz nev Kredit-...](https://navoiy-uni.uz/nev/Kredit-...)
10. Manba WWW.daryo.uz.